

**QASHQADARYO VILOYATINING TRANSPORT-LOGISTIKA TARMOG‘I:
MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA YECHIMLAR**

**THE TRANSPORT AND LOGISTICS NETWORK OF THE QASHQADARYO
REGION: CHALLENGES, OPPORTUNITIES, AND SOLUTIONS**

Maxmanov Asliddin Shokir o‘g‘li

*Qarshi xalqaro universiteti Iqtisodiyot va
muhandislik kafedrasasi assistenti
asliddinmakhmanov@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatining transport-logistika tarmog‘ining hozirgi holati har tomonlama tahlil qilinadi. Hududning iqtisodiy rivojlanishida transport infratuzilmasining o‘rni, yuk va yo‘lovchi tashish tizimining samaradorligi hamda logistika xizmatlarining rivojlanish darajasi asosiy tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mavjud muammolar, jumladan, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, transport yo‘llarining sifati, logistika markazlarining cheklanganligi va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarining yetishmasligi aniqlanadi. Tadqiqot davomida hududning geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va tranzit salohiyati asosida mavjud imkoniyatlar baholanadi. Xususan, viloyatni mintaqaviy va xalqaro transport yo‘laklariga integratsiya qilish, logistika markazlarini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish yo‘llari asoslab beriladi. Maqolada, shuningdek, transport-logistika tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib, ularning hududiy iqtisodiy o‘shishga ta’siri ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyatida transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. Qashqadaryo viloyati, transport-logistika tizimi, transport infratuzilmasi, logistika markazlari, yuk tashish, yo‘lovchi tashish, tranzit salohiyati, mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy o‘shish, transport tarmoqlari, avtomobil yo‘llari, temiryo‘l transporti, multimodal tashuvlar, logistika samaradorligi, transport xizmatlari, hududiy integratsiya, eksport-import operatsiyalari, logistika xarajatlari, investitsiya siyosati, transport koridorlari, xalqaro transport yo‘laklari, logistika boshqaruvi, raqamli logistika, innovatsion texnologiyalar, transport tizimini modernizatsiya qilish, logistika klasterlari, yuk oqimlari, transport xavfsizligi, ta’minot zanjiri boshqaruvi, davlat-xususiy sheriklik, logistika xizmatlari sifati.

Kirish. Hozirgi globallashtirish sharoitida transport-logistika tizimi har qanday hududning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, mintaqaviy iqtisodiyotda ishlab chiqarish,

taqsimot va iste'mol jarayonlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashda transport va logistika infratuzilmasining o'rni beqiyosdir. Shu nuqtai nazardan, transport-logistika tarmog'ining rivojlanganlik darajasi hududning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda ichki bozorlar faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda transport va logistika sohasini modernizatsiya qilish, xalqaro transport yo'laklariga integratsiyalashuvni kuchaytirish hamda infratuzilmani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qabul qilinayotgan davlat dasturlari va strategik hujjatlar hududlar kesimida transport tizimini takomillashtirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab bermoqda. Mazkur jarayonlarda Qashqadaryo viloyati o'zining geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va iqtisodiy salohiyati bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyati respublikaning janubiy hududida joylashgan bo'lib, u yirik sanoat va agrar salohiyatga ega hududlardan biri hisoblanadi. Viloyatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berishda samarali transport-logistika tizimini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Shu bilan birga, hududda mavjud transport infratuzilmasining ayrim jihatlari, jumladan, yo'l tarmoqlarining texnik holati, logistika markazlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va zamonaviy logistika xizmatlarining cheklanganligi mazkur sohaning to'liq salohiyat bilan ishlashiga to'sqinlik qilmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Qashqadaryo viloyatining transport-logistika tarmog'ining hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda hududning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirish yo'nalishlarini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari asosida transport-logistika tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib, ularning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri yoritiladi. Ushbu maqola natijalari nafaqat Qashqadaryo viloyati, balki boshqa hududlarda ham transport-logistika tizimini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi. Transport-logistika tizimini rivojlantirish masalalari xalqaro va milliy darajada keng o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalish iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida baholanadi. Xususan, logistika tizimlarining samaradorligi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlab, iqtisodiy faoliyatning barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda transport infratuzilmasi va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik chuqur tahlil qilingan. Masalan, J. Rodrigue transport geografiyasi va logistika tizimlarini tahlil qilib, transport tarmoqlarining rivojlanganligi hududiy iqtisodiy faollikni oshirishda asosiy omillardan biri ekanligini

asoslab beradi¹. Shuningdek, M. Christopher logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi samaradorligini oshirish orqali korxonalar raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkinligini ta'kidlaydi².

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki hisobotlarida transport-logistika infratuzilmasining rivojlanganligi mamlakatlarning global bozorlarga integratsiyalashuv darajasini belgilovchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi³. Ushbu hisobotlarda logistika samaradorligi indeksi (LPI) orqali mamlakatlarning logistika tizimi baholanadi hamda infratuzilmani modernizatsiya qilish zarurati asoslab beriladi.

MDH davlatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda transport infratuzilmasining hududiy rivojlanishga ta'siri alohida o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida transport tarmoqlarining zichligi, yo'llarning sifati va logistika markazlarining rivojlanish darajasi hududiy iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi⁴.

O'zbekiston Respublikasida transport-logistika tizimini rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, "Transport to'g'risida"gi Qonunda transport tizimining yagona infratuzilmasini shakllantirish va uning samarali faoliyatini ta'minlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan⁵. Bundan tashqari, "O'zbekiston Respublikasining transport strategiyasi – 2035"da transport-logistika tizimini kompleks rivojlantirish, xalqaro transport yo'laklariga integratsiyalashuvni kengaytirish va logistika markazlarini tashkil etish ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tilgan⁶. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining transport va logistika sohasini rivojlantirishga oid qarorlarida infratuzilmani modernizatsiya qilish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan⁷. Mazkur hujjatlar hududlar, jumladan, Qashqadaryo viloyatida transport-logistika tizimini takomillashtirish uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston hududlarida transport-logistika tizimining rivojlanish darajasi va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilingan. Ushbu ishlarda logistika infratuzilmasini rivojlantirish, transport xizmatlari sifatini oshirish hamda logistika xarajatlarini kamaytirish orqali hududiy iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkinligi ilmiy asoslab berilgan⁸. Shu bilan birga, mavjud

¹ Rodrigue J.-P. *The Geography of Transport Systems*. – New York: Routledge, 2020.

² Christopher M. *Logistics and Supply Chain Management*. – London: Pearson, 2016.

³ World Bank. *Connecting to Compete: Trade Logistics in the Global Economy*. – Washington DC, 2023.

⁴ Аникин Б.А. *Логистика*. – Москва: Инфра-М, 2019.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Transport to'g'risida". – Toshkent, 2021.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Transport strategiyasi – 2035. – Toshkent, 2020.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining transport va logistika tizimini rivojlantirishga oid qarorlari (PQ-4545, PQ-4035 va boshqalar).

⁸ Abdullayev Yo., Karimov Sh. Transport infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.

ilmiy va normativ manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyati misolida transport-logistika tizimini kompleks baholash, uning muammolari va rivojlanish imkoniyatlarini chuqur o‘rganish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Bu esa mazkur yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Asosiy qism. Qashqadaryo viloyatining transport-logistika tizimi hududiy iqtisodiyotning tayanch infratuzilma elementlaridan biri sifatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, hududlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash hamda bozor infratuzilmasining uzluksiz faoliyat yuritishini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur tizimning rivojlanganlik darajasi resurslar harakati tezligi, mahsulot yetkazib berish zanjirining uzluksizligi va umumiy iqtisodiy faollik ko‘rsatkichlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, transport infratuzilmasining rivojlanishi hududiy yalpi mahsulotning o‘shish sur‘atlarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Mintaqada transport tizimining samaradorligi nafaqat yuk va yo‘lovchi tashish hajmlarining ortishi bilan, balki logistika operatsiyalarining optimallasuvi, transport xarajatlarining kamayishi va xizmatlar sifatining oshishi bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish va iste‘mol o‘rtasidagi vaqt va makon tafovutini qisqartirish transport-logistika tizimining strategik ahamiyatini yanada oshiradi. Shu nuqtai nazardan, hududda transport-logistika infratuzilmasining rivojlanish darajasini ekonometrik yondashuv asosida baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Transport-logistika tizimining iqtisodiy samaradorligini aniqlash maqsadida ko‘p omilli regressiya modeli qo‘llanildi. Mazkur model hududiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar va transport-logistika omillari o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 I + \beta_2 Q + \beta_3 L + \beta_4 C + \varepsilon \quad (1)$$

Model tarkibidagi omillar hududiy iqtisodiyotning turli jihatlarini aks ettiradi. Xususan, transport infratuzilmasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar (I) kapital qo‘yilmalarning hajmini ifodalab, infratuzilmaning modernizatsiyasi va kengaytirilishini ta‘minlaydi. Yuk tashish hajmi (Q) iqtisodiy faollikning real ko‘rsatkichi sifatida ishlab chiqarish va savdo jarayonlarining intensivligini aks ettiradi. Logistika xizmatlari hajmi (L) esa xizmatlar sektorining rivojlanish darajasi va qo‘shimcha qiymat yaratilishini ifodalaydi. Transport xarajatlari (C) esa tizim samaradorligini baholovchi muhim indikator bo‘lib, ularning ortishi iqtisodiy natijalarga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Nazariy jihatdan, model parametrlarining belgilari iqtisodiy mazmun bilan asoslanadi. Ya‘ni, transport infratuzilmasiga investitsiyalar, yuk tashish hajmi va logistika xizmatlari ko‘rsatkichlari ortishi hududiy iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiradi ($\beta_1, \beta_2, \beta_3 > 0$). Aksincha, transport xarajatlarining ortishi resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytiradi va iqtisodiy o‘shishni sekinlashtiradi ($\beta_4 < 0$).

Modelni chuqurroq tahlil qilish maqsadida uni logarifmik shaklga o‘tkazish ham maqsadga muvofiq bo‘lib, bu elastiklik koeffitsiyentlarini aniqlash imkonini beradi:

$$\ln Y = \beta_0 + \beta_1 \ln I + \beta_2 \ln Q + \beta_3 \ln L + \beta_4 \ln C + \varepsilon \quad (2)$$

Mazkur yondashuv orqali har bir omilning foiz o‘zgarishi natijasida YAIMning necha foizga o‘zgarishi aniqlanadi. Bu esa transport-logistika tizimining iqtisodiy samaradorligini yanada aniqroq baholash imkonini beradi. Ekonometrik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, transport infratuzilmasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar va logistika xizmatlari hajmi hududiy iqtisodiy o‘shishga eng katta ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar hisoblanadi. Ayniqsa, logistika xizmatlarining rivojlanishi qo‘shimcha qiymat yaratish orqali iqtisodiy tizimning umumiy samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, transport xarajatlarining yuqoriligi iqtisodiy o‘shishni cheklovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish uchun kompleks yondashuv zarur. Xususan, infratuzilmani modernizatsiya qilish, logistika xizmatlarini kengaytirish va transport xarajatlarini optimallashtirish asosiy ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaraladi. Shu asosda hududning transport-logistika salohiyatidan samarali foydalanish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida transport-logistika ko‘rsatkichlari dinamikasi (2019–2024 yy.)⁹

Yillar	YAIM (mlrd so‘m)	Investitsiya (mlrd so‘m)	Yuk tashish (mln tonna)	Logistika xizmatlari (mlrd so‘m)
2019	28540	3120	18,5	1240
2020	30210	3540	17,8	1310
2021	34870	4280	19,6	1520
2022	39460	5100	21,3	1880
2023	45720	6350	24,7	2240
2024	52180	7420	27,5	2860

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda Qashqadaryo viloyatida transport-logistika tizimi bilan bog‘liq asosiy ko‘rsatkichlar barqaror o‘shish tendensiyasiga ega. Xususan, transport infratuzilmasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining izchil ortib borishi logistika xizmatlari bozorining kengayishiga hamda yuk tashish hajmlarining sezilarli darajada oshishiga xizmat qilgan. Bu holat hududda iqtisodiy faollikning ortib borayotganini va transport-logistika tizimining iqtisodiy o‘shishdagi katalizator rolini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, kuzatilgan ijobiy dinamikaga qaramay, ayrim strukturaviy

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.

nomutanosibliklar ham mavjud bo'lib, ular transport xarajatlarining yuqoriligi va logistika infratuzilmasining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi bilan bog'liq. Mazkur omillar tizim samaradorligini cheklovchi faktorlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'tkazilgan ekonometrik tahlil natijasida quyidagi regressiya tenglamasi aniqlandi:

$$Y = 5.2 + 2.8I + 1.6Q + 2.1L - 1.3C$$

Mazkur model parametrlarining iqtisodiy talqini hududiy rivojlanish jarayonlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Xususan, transport infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning (I) 1 birlikka oshishi hududiy yalpi mahsulotni o'rtacha 2.8 birlikka oshirishi aniqlangan bo'lib, bu investitsiyalarning yuqori multiplikativ samaraga ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu natija infratuzilmaga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar nafaqat transport tizimini yaxshilash, balki butun iqtisodiy tizimni rag'batlantirishini tasdiqlaydi.

Yuk tashish hajmi (Q) koeffitsiyentining 1.6 ga tengligi ishlab chiqarish va savdo jarayonlarining kengayishi transport tizimi orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Biroq ushbu ko'rsatkichning nisbatan pastroq qiymati yuk tashish tizimida hali to'liq foydalanilmayotgan ichki imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Logistika xizmatlari hajmi (L) koeffitsiyentining 2.1 ga tengligi ushbu sohaning iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini bildiradi. Bu holat logistika xizmatlari orqali qo'shimcha qiymat yaratilishi, taqsimot tizimining samaradorligi oshishi va mahsulot yetkazib berish jarayonining optimallasuvi bilan izohlanadi. Amaliy jihatdan, bu natija logistika sektorini rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

Modelda transport xarajatlari (C) manfiy koeffitsiyent (-1.3) bilan ifodalangan bo'lib, bu ularning iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Ya'ni, transport xarajatlarining oshishi ishlab chiqarish tannarxining ortishiga, mahsulotlarning raqobatbardoshligi pasayishiga va umumiy iqtisodiy samaradorlikning kamayishiga olib keladi. Shu sababli transport xarajatlarini optimallashtirish va logistika jarayonlarini takomillashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Ekonometrik model natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, Qashqadaryo viloyatida transport-logistika tizimining rivojlanishi iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, investitsiyalar va logistika xizmatlari sektorining rivoji hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlarga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, transport xarajatlarini kamaytirish orqali mavjud salbiy ta'sirlarni minimallashtirish mumkin.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, transport-logistika tizimini kompleks rivojlantirish, xususan, infratuzilmani modernizatsiya qilish, logistika xizmatlarini kengaytirish va

samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali hududiy iqtisodiy o‘shishni yanada jadallashtirish mumkin. Bu esa viloyatning nafaqat ichki, balki tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

2-jadval

Transport-logistika omillarining iqtisodiy o‘shishga ta’siri (regressiya natijalari)¹⁰

Ko‘rsatkichlar	Koefitsiyent	t-statistika	Ahamiyatlilik darajasi
β_0	5.2	2.1	0.05
β_1 (Investitsiya)	2.8	3.6	0.01
β_2 (Yuk hajmi)	1.6	2.9	0.02
β_3 (Logistika)	2.1	3.2	0.01
β_4 (Xarajatlar)	-1.3	-2.4	0.03

Natijalar modelning statistik jihatdan ishonchli ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, logistika xizmatlari va investitsiyalar iqtisodiy o‘shishga eng katta ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, tahlil natijalari asosida quyidagi muammolar aniqlandi:

- transport infratuzilmasining hududlar kesimida notekis rivojlanganligi;
- logistika markazlari sonining yetarli emasligi;
- multimodal tashuvlarning past darajada rivojlanganligi;
- transport xarajatlarining yuqoriligi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiy o‘shishni sezilarli darajada jadallashtirish mumkin. Ayniqsa, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va transport xarajatlarini kamaytirish eng ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi.

Shuningdek, quyidagi strategik yo‘nalishlar samarali deb baholanadi:

- logistika markazlarini tashkil etish va rivojlantirish;
- temiryo‘l va avtomobil transportini integratsiyalash;
- raqamli logistika platformalarini joriy etish;
- transport infratuzilmasiga investitsiyalarni oshirish.

Natijada, transport-logistika tizimining takomillashuvi hududning iqtisodiy salohiyatini oshirib, uning milliy va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Tahlillar va asosiy natijalar. Qashqadaryo viloyatining transport-logistika tizimi bo‘yicha olib borilgan tahlillar hududiy iqtisodiyot rivojlanishida ushbu sohaning

¹⁰ Muallif hisob-kitoblari (EViews13)

muhim strategik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Statistika ma'lumotlar asosida o'rganilgan davr mobaynida transport infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar, yuk tashish hajmi hamda logistika xizmatlari hajmining izchil o'sib borayotgani kuzatildi. Bu esa hududda iqtisodiy faollikning ortishi va transport-logistika tizimining iqtisodiy jarayonlardagi faollashuvini ifodalaydi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, transport infratuzilmasiga investitsiyalarning ortishi nafaqat transport xizmatlari sifatining yaxshilanishiga, balki ishlab chiqarish va taqsimot jarayonlarining tezlashishiga ham olib keladi. Ayniqsa, yo'l tarmoqlarining modernizatsiya qilinishi va logistika infratuzilmasining kengayishi yuk tashish hajmlarining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, logistika xizmatlari sektorining rivojlanishi hududda qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirib, xizmatlar bozorining diversifikatsiyasiga xizmat qilmoqda.

O'tkazilgan ekonometrik tahlil natijalari transport-logistika omillarining hududiy yalpi mahsulotga ta'sirini aniq ifodalab berdi. Xususan, transport infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar eng katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan omil sifatida qayd etildi. Bu holat infratuzilma rivojlanishining multiplikativ effektga ega ekanligini, ya'ni u boshqa iqtisodiy tarmoqlarning ham rivojlanishiga turtki berishini ko'rsatadi.

Logistika xizmatlari hajmining ortishi ham iqtisodiy o'sishga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Bu natija logistika tizimining faqat yordamchi soha emas, balki iqtisodiy qiymat yaratuvchi muhim sektor ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, yuk tashish hajmining o'sishi iqtisodiy faollikning ortishini aks ettirgan bo'lsa-da, uning ta'siri nisbatan pastroq bo'lib, bu logistika tizimining to'liq optimallashtirilmaganligini anglatadi.

Tahlillar davomida transport xarajatlarining iqtisodiy o'sishga salbiy ta'siri mavjudligi ham aniqlandi. Yuqori transport xarajatlari mahsulot tannarxining oshishiga olib kelib, hududiy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Shu sababli transport xarajatlarini kamaytirish va logistika jarayonlarini optimallashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanishi zarur.

Olingan natijalar asosida quyidagi asosiy ilmiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, transport-logistika tizimi Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy o'sishning muhim drayveri hisoblanadi va uning rivojlanish darajasi hududiy iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, transport infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar eng yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lib, ular iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham ijobiy multiplikativ ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, logistika xizmatlari sektorining rivojlanishi qo'shimcha qiymat yaratish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

To‘rtinchidan, transport xarajatlarining yuqoriligi iqtisodiy samaradorlikni pasaytiruvchi asosiy cheklovchi omillardan biri bo‘lib, ularni optimallashtirish zarur.

Beshinchidan, transport-logistika tizimini kompleks rivojlantirish, jumladan infratuzilmani modernizatsiya qilish, logistika markazlarini tashkil etish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali hududiy iqtisodiy o‘shishni sezilarli darajada jadallashtirish mumkin.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar Qashqadaryo viloyatida transport-logistika tizimini rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi. Ushbu yo‘nalishda amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar hududning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyatining transport-logistika tizimi hududiy iqtisodiy o‘shishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Transport infratuzilmasiga investitsiyalar, logistika xizmatlari va yuk tashish hajmining ortishi iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, transport xarajatlarining yuqoriligi tizim samaradorligini cheklovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ilgari suriladi: transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika markazlarini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va transport xarajatlarini optimallashtirish zarur. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni kengaytirish hamda hududning tranzit salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish transport-logistika tizimining samaradorligini oshirishga, hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga va Qashqadaryo viloyatining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Transport to‘g‘risida”. – Toshkent, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4545-son qarori. Transport va logistika tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – Toshkent, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4035-son qarori. Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish to‘g‘risida. – Toshkent, 2018.
4. O‘zbekiston Respublikasining Transport strategiyasi – 2035. – Toshkent, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari. – www.stat.uz
6. Rodrigue J.-P. The Geography of Transport Systems. – New York: Routledge, 2020.
7. Christopher M. Logistics and Supply Chain Management. – London: Pearson, 2016.

8. World Bank. Connecting to Compete: Trade Logistics in the Global Economy. – Washington DC, 2023.
9. Asian Development Bank. Transport Sector Development in Central Asia. – Manila, 2022.
10. Аникин Б.А. Логистика. – Москва: Инфра-М, 2019.
11. Сергеев В.И. Логистика в бизнесе. – Москва: Юрайт, 2020.
12. Abdullayev Yo., Karimov Sh. Transport infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
13. Rasulov A. Hududiy iqtisodiyot va infratuzilma rivoji. – Toshkent: Fan, 2021.